UO‘K 821.512.133

UCH OG‘AYNI ARXETIPIK SXEMASIDA DONO QARIYA OBRAZI

F.O. Mamtaliyeva

Maqolada uch og‘ayni arxetipik sxemasidagi dono qariya va uch og‘ayni obrazlari munosabati o‘rganilgan. Dono qariya obrazining xalq og‘zaki ijodidagi genezisi va qahramon hayotidagi ahamiyati tadqiq etilgan. O.Yoqubovning “Er boshiga ish tushsa...”, “Ulug‘bek xazinasi”, P.Qodirovning “Uch ildiz”, “Qora ko‘zlar” romanlari, T.Malikning “Shaytanat”, U.Hamdamning “Muvozanat”, romanidagi variantlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *uch og‘ayni arxetipik obrazi, initsiatsiya, dono qariya, ego, soya, kenja.*

В статье исследуется взаимосвязь образов мудрого старца и трёх братьев в архетипической схеме «трёх братьев». Рассматриваются генезис образа мудрого старца в народном творчестве и его роль в судьбе героя. Анализируются варианты реализации данной архетипической схемы в романах «Трудно быть мужчиной» и «Сокровища Улугбека» О. Якубова, «Три корня» П. Кадырова, «Шайтанат» Т. Малика и «Мувозанат» У. Хамдама. Выявляются особенности взаимодействия архетипических образов в этих произведениях.

Ключевые слова: *архетип трёх братьев, архетипический образ, мудрый старец, инициация, эго, тень, младший брат.*

KIRISH

Karl Gustav Yungning arxetip haqidagi nazariyalarini chuqur o‘rgangan Maria-Luiza fon Frans arxetipik tasvirning statik emasligi, mustaqil va o‘z navbatida boshqa shakllarni qamrab oladigan, murakkab ramziy jarayon ekanligiga e’tibor qaratib: “arxetip xuddi alohida radiatsiya nurlariga o‘xshash va ayni paytda yagona magnit maydon kabi harakat qiladigan, har tomonga tarqaladigan o‘ziga xos psixologik impuls” [1. B. 2] ekanligini uqtiradi. Maria-Luiza von Fransning arxetipga nisbatan metaforik munosabatida arxetiplarning mavjudlik, ko‘rinmaslik, ta’sir ko‘rsatuvchanlik xususiyatlariga urg‘u berilganini anglash mumkin. Shu jihatdan, K.G.Yung va M.-L. von Fransning arxetipga oid psixoanalitik qarashlari bir-birini to‘ldiradi.

Nortrop Fray arxetiplarni ruhiy hodisa sifatida emas, balki bir asarni ikkinchi asar bilan bog‘laydigan, shu orqali adabiy tajribani birlashtirish va uyg‘unlashtirishga yordam beradigan ramz sifatida [2. B. 99] talqin etadi.

Arxetipga nisbatan turli yondashuvlar mavjud bo‘lsa-da, mutaxassislarning hech biri uning ildizlari ilk davrlar bilan bevosita bog‘liqligi, muayyan ijtimoiy-etnik dunyoqarash ta’sirida kengayishi, o‘zgarishi, yangi mazmun bilan boyib borishini inkor etmaydilar. O‘z navbatida bu kabi turli yondashuvlarning mavjudligi ham badiiy asarni integratsion yondashuv asosida tahlil qilish imkonini beradi.

Karl Yungning analitik psixologiya nazariyasiga ko‘ra, dono qariya arxetipi – bu ongli fikrlash imkoni bo‘lmagan paytda ongdan tashqaridagi ruhiy makonda o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan axloqiy va jismoniy kuchlarning maqsadli aks etishi va konsentratsiyasidir. Bu konsentratsiya sehrga o‘xshaydi va ko‘pincha irodadan ustun bo‘lgan chidamlilikni rivojlantiradi [3].

Yung qahramonning qiyin ahvolida unga duch keladigan dono qariya arxetipi, odatda, tushlarda o‘qituvchi, sehrgar, professor, qadimgi ajdod yoki kuchli hokimiyatga ega shaxs sifatida namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi. Ayrim manbalarda dono qariya obrazining patriarxal davrdagi qabila oqsoqoli bilan bog‘liq ekanligi haqida fikrlar ham uchraydi[1*]. Xususan, ba’zi ertaklarda dono qariya arxetipi marhum otaning ruhi

[1] G‘ayrat Jalolov “O‘zbek xalq ertaklari poetikasi” nomli kitobida rus olimi V.Proppning mazkur fikrini keltirib o‘tar ekan, dono qariya arxetipining qabila oqsoqollari bilan bog‘liqligi haqidagi fikrlari birmuncha ishonchli ekanligini ta’kidlaydi. *Qarang:* Жалолов Ғ. Ўзбек халқ эртаклари поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1976. – B. 57

yoki o‘lim oldidan vasiyati shaklida aks etadi. Maslahat yoki vasiyatga amal qilgan qahramon moddiy, ma’naviy va ijtimoiy jihatdan yuksaladi, aksincha bo‘lsa, u pastroq darajaga tushadi.

Mazkur arxetip analitik nuqtayi nazardan ba’zi holatlarda “Men” (Self)ning ramziy timsoli bo‘lib keladiki [3], u orqali qahramonning, avvalo, ma’nan yuksalgani namoyon bo‘ladi. Dono qariya arxetipi uch og‘a-ini arxetipi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, odatda, qahramonni safarga chiqishga da’vat etishi yoki safarning ilk bosqichida unga yo‘l ko‘rsatishi mumkin. Jozef Kempbell ta’biri bilan aytganda, ko‘pincha dono qariya chaqiriqni qabul qilgan qahramon qarshisida paydo bo‘ladi [4]. Shu jihatdan, ayrim folklor manbalarida chaqiriqni qabul qilish yoki rad etishning o‘ziyoq qahramonning hayot yo‘li tanlovini bildiradi.

Mohiyatan, dono qariya arxetipi V.Propp nazariyasidagi homiy funksiyasini bajaradi.

Folklorshunos Jabbor Eshonqulning ta’kidlashicha, ajdodlar kultini ifoda etgan homiy ruh madaniy qatlam davrida g‘ayb dunyosi va insonlarni bir-biriga bog‘lab turuvchi kishiga aylanadi [5. B. 69]. Shu jihatdan, eposda qahramonga ko‘mak beruvchi homiyda ilohiy kuchlar mavjud bo‘ladi. Keyingi davr adabiyotida dono qariya arxetipidagi ilohiylik atributi nisbatan chekinib, real hayotga muvofiqlashganini kuzatish mumkin. Xususan, Alisher Navoiy ijodida ushbu arxetip faol qo‘llangan. “Farhod va Shirin” dostonida Xizr ilohiy qudratga ega bo‘lgan qahramon sifatida gavdalantirilsa, “Saddi Iskandariy” dostonida dunyoning ko‘plab ilmlarini egallagan buyuk ustoz – Arastu ko‘rinishida tasvirlanadi.

“Farhod va Shirin” da Iskandar tilsimini yechishga otlangan Farhod chashma bo‘yida Xizrni uchratadi: “*Ko‘targach boshni ko‘rdi sabzro‘she, Yuzi nuroni andoqkim Surushe”* [6. B. 159]. Farishtaga o‘xshatilgan Xizr Farhodga tilsimni yechishda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi: “*Meni Xizr anglakim, tuttim yo‘lingni – Ki to bu yo‘lda tutqaymen qo‘lingni”* [6. B. 159]. Xizr maslahatiga amal qilgan Farhod Iskandar tilsimini yechadi, xoqon va yaqinlarini xursand qiladi. “Saddi Iskandariy” dostonida Arastu, Aflotun, Suqrot kabi allomalar Iskandarga har jihatdan ustozlik ko‘rsatadilar. Navoiyning maqsadi – har jihatdan yetuk podshoh siymosini tasvirlash bo‘lgani uchun qadimgi dunyoning uch buyuk allomasi tomonidan dunyoning o‘tkinchiligi, shohning adolati, fuqaroga mehr-muhabbati haqida Iskandarga nasihatlar beriladi.

Realistik adabiyotda dono qariya arxetipi qahramonga moddiy va ma’naviy yordam ko‘rsatadigan, hayot qiyinchiliklarini yengib o‘tgan ustoz yoki yuqori salohiyatga ega yaqin qarindosh sifatida aks etadi. Mazkur obrazning funksiyasi, asosan, qahramonning mushkul vaziyatini yengillashtirish yoki uni bu vaziyatda qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

MATERIAL VA USULLAR

Maqolada qo‘yilgan masala – dono qariya arxetip obrazining uch og‘ayni arxetip obrazi bilan munosabatini tadqiq etish uchun Odil Yoqubovning “Er boshiga ish tushsa” [9], “Ulug‘bek xazinasi” [10] Pirimqul Qodirovning “Qora ko‘zlar” [7], Tohir Malikning “Shaytanat” [11], Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat” [12] romanlari, Isajon Sultonning “Qismat” [13] hikoyasidan material sifatida foydalanildi. Mazkur asarlardagi dono qariya arxetipining funksiyalarini tadqiq etishda struktur, mifopoetik, qiyosiy-tipologik tahlil usullaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Xalq og‘zaki ijodida katta o‘g‘illar dono qariya ko‘magini ixtiyoriy tarzda rad etishi (chunki ular chaqiriqni rad etadi) realistik asarlarda ham o‘zgarishsiz takrorlanadi. Realistik adabiyotda ham mazkur arxetip obraz kenja tipidagi personaj bilan bevosita bog‘langan holda keladi.

Zamonaviy adabiyotdagi dono qariya arxetip obrazi folklordagi variantlari singari o‘zga makonda umr kechirmasa-da, ularda ayrim xususiyatlar saqlanib qolganini ko‘rish mumkin:

1) sirli;
2) o‘zgacha fikrlash tarziga ega;
3) noodatiy (g‘alati) hayot kechiradi;
4) aksariyat hollarda yolg‘iz;
5) ko‘pincha mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzumga nisbatan oshkora tanqidiy munosabat bildiradi.

1-jadval

Zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi uch og‘ayni arxetip sxemasida dono qariya arxetip obrazining funksiyalari

T/r	Asar nomi	Dono qariya obrazi	Qahramonga nisbatan rishtasi	Dono qariya arxetip obrazining ijtimoiy maqomi	Obrazning funksiyasi
1.	**“Er boshiga ish tushsa”**	*Qurbon ota*	Qahramonning bo‘lajak qaynotasi, otasining hammaslagi	Inqilob uchun kurashgan oqsoqol, pochtachi	Qahramon(lar)ni ruhlantiradi.
2.	**“Uch ildiz”**	*Akbarov*	Qahramonning o‘qituvchisi	O‘qituvchi	Qahramonni to‘g‘ri yo‘lga chorlaydi.
3.	**“Qora ko‘zlar”**	*Norboy ota*	Turmush o‘rtog‘ining tog‘asi	Malakali cho‘pon	Qahramonni safarga da’vat etadi.
4.	**“Ulug‘bek xazinasi”**	*Usta Temur Samarqandiy*	Qahramonning yaqini, tutingan ota maqomida	Temirchi usta	Qahramonga ma’naviy ko‘mak beradi.
5.	**“Oqqushlar, oppoq qushlar...”**	*Ivan Xaritonovich Beloborodov*	Qahramonning jangdagi komandiri	Bosh injener	Qahramonga mushkul vaziyatda ko‘mak beradi.
6.	**“Muvozanat”**	*Muhammadjon*	Qahramonning tog‘asi	Sobiq o‘qituvchi va sobiq amaldor	Qahramonni haq yo‘lga chorlaydi.
7.	**“Shaytanat”**	*Abdurahmon*	Qahramonni davolagan hakim	tabib	Qahramonning ma’naviy-ruhiy olamini poklashga urinadi

Pirimqul Qodirovning “Qora ko‘zlar” romanida cho‘pon Norboy tog‘a Avaz uchun haqiqiy ustoz vazifasini o‘taydi. Avvalo, Avaz akasi Ortiq bilan mushtlashib, maktabdan ketganda Norboy tog‘a uni qo‘llab-quvvatlaydi, cho‘ponlik sir-asrorlarini o‘rgatadi. Norboy otaning Avazga nisbatan pozitsiyasi sabab Hulkar Avazni boshqacha nigoh bilan ko‘rishni boshlaydi: “*Men umrim bino bo‘lib bunaqa mol taniydigan odamni kam ko‘rganman. To‘rt yuz – besh yuz qo‘yning har birini ovozidan taniydiya! <...> Men Avazni ko‘zikmasin deb qo‘rqaman*” [7. B. 32]. El oldida yuzi shuvut bo‘lgan Avaz mana shu maqtovlar ta’sirida yigitlik g‘ururini tiklab oladi. Qolaversa, Norboy otaning keyingi (asosiy) ko‘magi Hulkarga uylanib, qishloqda qolib ketgan Avazni tog‘ga qaytishga da’vat etishidadir. Hulkarga uylanishi mojaroga aylangach, Avaz to‘ydan keyin ayolining yonidan uzoqlashmaslikka harakat qiladi. Tog‘da yaxshi maosh olib, oilani moddiy jihatdan yetarlicha ta’minlab turgan yigitning oila qurgach, arzimagan ishlarni bajarib yurishi onasiga ham erish tuyuladi. Norboy otaning “*men saralangan suruvimni sendan boshqasiga ishonmayman*” degan gapi bilan Avaz tog‘ga qaytadi va o‘zining haqiqiy cho‘pon ekanligini isbotlaydi, onasi bilan munosabatlari ham yaxshilanadi.

Odil Yoqubovning yirik romanlaridagi uch og‘ayni va dono qariya arxetipik sxemasiga xalq ertaklarining varianti sifatida qarash mumkin – qahramon dono qariya ko‘magiga doim muhtojlik sezadi, uning yordami bilan to‘g‘ri yo‘ldan harakatlanadi. “Er boshiga ish tushsa” romanida dono qariya kenja o‘g‘il tipidagi qahramon Mashrabning “bo‘lajak qaynotasi” bo‘lsa, “Ulug‘bek xazinasi“ romanida ko‘pni ko‘rgan mashhur temirchi usta, “Oqqushlar, oppoq qushlar”-da harbiy qism kapitani sifatida namoyon bo‘ladi.

“Er boshiga ish tushsa” romanida “sal g‘alatiroq” deb ta’riflangan Qurbon ota Mashrab va do‘stlari uchun vatanparvar inson namunasidir. Mardikorlikka yuborilgan, “revolyutsiya dushmanlari bilan olishgan” Qurbon ota o‘smir yigitlarni jasur va mehnatkash bo‘lishga da’vat etadi. Uning bir vaqtlar Mashrab va Qo‘chqorning otalari bilan bir safda kurashgani, e’tiqodida sobitligi yigitlarda (ayniqsa, Mashrabda) otalariga nisbatan qayta ishonchning uyg‘onishiga sabab bo‘ladi. Mehnat frontida xizmat qilayotganlar uchun Qurbon otaning yurtga nisbatan muhabbati haqiqiy o‘rnak sifatida ko‘rinadi. Qurbon ota inqilobchi sifatida eski voqealarni gapirishi va doim bir jumlani takrorlab yurishni (“Rossiyada O‘rtoq Chapayev, O‘rta Osiyoda mana biz!”) xush ko‘rishi tufayli ko‘pchilik yoshlar, xususan, Qo‘chqor va Akmal tomonidan ham mazax qilinadi. Uch og‘aynidan farqli ravishda Mashrab Qurbon otaga ayricha munosabatda bo‘ladi, uning so‘zlariga quloq tutadi. Agar asar yaratilgan davr kontekstidan kelib chiqsak, Qurbon otadagi oddiy voqea-hodisalarga ham ko‘ta-

rinki ruh bilan munosabat bildirish xarakteri mantiqli ko‘rinadi. Amaldorlar Ertoyev va Xolmat chavandoz tilda yurt tashvishi haqida bong ursa-da, amalda o‘z qorni g‘amida bo‘ladilar. Qurbon ota o‘zining mehnatkash xalq ozodlikka chiqishida ishtirok etganligi bilan faxrlanib yuradi, shu jihatdan, front ortidagi mehnat davlat uchun qay darajada muhim ekanligini teran tushunadi.

Urug‘lik olish uchun tashkil etilgan safarda Qurbon otaning ko‘pni ko‘rganligi foyda beradi, ayni shu vaziyatda u guruh oqsoqoli sifatida harakatlanadi va qahramonlar qiyin vaziyatlardan uning maslahati yordamida xalos bo‘ladilar – qozoq dashtlaridagi keksalar Qurbon otani taniganlari bois karvondagilarga yemak ulashadi, tunash uchun joy beradi.

Yigitlarning Ertoyev buyrug‘i bilan dashtga quvilishi, keyin Qurbon ota boshchilida safarga chiqishida qadimgi davrlardagi initsiatsiya marosimi elementlari ko‘rinadi. M.Eliadega ko‘ra, ibtidoiy dunyodagi initsiatsiya odamga o‘zini to‘liq inson sifatida his qilish imkonini beradi [8. B. 28].

Safardan qaytish yigitlarning harbiy xizmatga chaqirilishi bilan bog‘lanib ketishi ramziy ma’noda uch og‘aynining kattalar maqomiga muvaffaqiyatli o‘tganini ko‘rsatadi: “*Lekin eng qizig‘i – qishloq ahli ham ularga allaqanday boshqacha qaray boshlagan edi. Bir piyola musallasdan kayflari oshib, o‘zlarini juda salobatli tutayotgan* ***bu o‘spirinlar ularga ham chinakam yigit bo‘lib tuyular****, yigitlar hovlidan hovliga o‘tganlarida hatto* ***mo‘ysafidlar qo‘l qovushtirib kuzatib qolishar, qo‘l qovushtirib kutib olishardi****”* (ta’kid bizniki. – F.M.) [9. B. 303].

Muallifning “Ulug‘bek xazinasi” romanida dono qariya arxetip obrazi Qalandar Qarnoqiy bilan bog‘lanadi. Ertakda kenja botir “borsa kelmas” yo‘lga qadam qo‘yib, ikkilanib turgan vaziyatda befarzand mo‘ysafidni uchratgani singari Qalandar Qarnoqiy ham saroydan ketib, xonaqohlarga – o‘zga makonga, soxta qalandarlarga o‘rgana olmay, qishloqlarni sayr qilishni odat qilgan vaqtda 80 yoshli mo‘ysafid usta Temur Samarqandiy bilan tanishadi: “*O‘g‘lim yo‘q edi, Xudo men g‘aribi notavonga ham farzand ato qildi, o‘lsam qabrimga sham yoqib, Qur’on o‘qiydigan bir zurriyot in’om etdi deb suyungandim*” [10. B. 199].

Muallif usta portretini Qalandar Qarnoqiy va Ali Qushchi nigohi orqali beradi:

Qalandar Qarnoqiy nigohidan: *Chiroyli ketmon soqoli dud va tutundan sarg‘ayib ketgan, boshiga ag‘darma telpak kiygan, peshanasidagi qat-qat ajinlarini qoraqurum bosgan, lekin* ***qaddi-qomatidan allaqanday salohiyat va kuch yog‘ilib turgan bu chol****...”* [10. B. 133]

Ali Qushchi nuqtayi nazaridan: “...*keng yuzi, ko‘ksiga tushgan oppoq soqoli, kuch yog‘ilib turgan baquvvat jussasi, tizzasiga tirab o‘tirgan qoqsuyak qo‘llari xuddi cho‘ng qoyadan o‘yib yasalganga o‘xshar,* ***vujudidan bo‘lakcha bir mardonavorlik, iroda, kuch yog‘ilib turardi*****”** [10. B. 104].

Mazkur ikki xil portret orqali Temur Samarqandiyning o‘zgacha qiyofasi, uning g‘ayrioddiy qudratga ega ekanligi haqidagi yaxlit .

Temur Samarqandiyning ham Qalandar Qarnoqiy singari podshohlarga nisbatan ishonchi qolmagan bo‘lsa-da, ilm-ma’rifatni yoqlagani bois Ulug‘bek shogirdlariga yordam qo‘lini cho‘zadi, qimmatbaho boyliklar – kitoblar uchun sandiq yasab berishga rozi bo‘ladi. Ushbu harakati bilan u Qalandarning Nizomiddin Xomush yo‘rig‘idan butkul chiqib ketishini, Mirzo Ulug‘bek bilan o‘lim oldidan ko‘rishib, rizolik olishiga yordam beradi.

Mustaqillik davrida yaratilgan asarlardagi dono qariya arxetipi yuqorida berilgan romanlardagi variantlardan birmuncha farq qiladi.

Tohir Malikning “Shaytanat” romanida muallif dono qariya arxetipining xalq og‘zaki ijodidagi invariantiga deyarli o‘zgarish kiritmaydi: “...borsa-kelmas yo‘liga ro‘para kelib tur”gan [11. B. 22] Asadbekka Abdurahmon tabibni yo‘liqtiradi. Garchi davosiz dardga darmon topa oluvchi tabib Asadbekka Kesakpolvon tomonidan tanishtirilsa-da, Kesakpolvon o‘zining noo‘rin harakatlari bilan Abdurahmon tabibning marhamatidan butunlay mahrum bo‘ladi, bu vaqtda Chuvrindi (Mahmud) safarga jo‘natilgani bois Abdurahmon tabib Asadbek bilangina uchrashadi.

Abdurahmon tabib taqvodor odam, Muhiddin ota ta’biri bilan aytganda, “valiy” zot bo‘lib, Asadbekning ikkala dardini ham (jismi va ruhidagi kasallikni) tez fahmlaydi.

Sho‘ro davridagi asarlardan farqli o‘laroq, “Shaytanat”da arxetip, muallif badiiy konsepsiyasidan kelib chiqib, diniy jihatdan funksiya bajaradi. Abdurahmon tabib Asadbeklar singari yigitlarning qalbiga zulmkorlik oshyon qurganini sovet tizimidan jabr ko‘rish oqibati, deb biladi, uning uchun shayton yo‘li tor doirada Asadbek-u Kesakpolvonlar yo‘li, keng doirada dinsizlikni targ‘ib qilgan, ota-onalarni begunoh qirg‘in qilib, avlodlarning tarbiyasiz bo‘lishiga sababchi bo‘lgan imperiyani bildiradi: “*Bilsangiz inim, men boshqa olamman. Sovet ittifoqi degan davlatni dunyo tan olgan, ammo men tan olmaganman. Sovet Ittifoqining chegarasi siz bosib o‘tgan darvoza ostonasida tugaydi. Ostonaning bu tomoni boshqa dunyo”* [11. B. 304].

Tabib Asadbekning jismini tuzatish bilan birga, uni tuzum natijasida singib ketgan zulmkorlikni kechirim bilan almashtirishga, Allohga yaqinlashishga da’vat qiladi. Lekin oniy lahzalarda Asadbek vujudida yongan iymon chirog‘i atrofidagilar ta’sirida yana so‘na-

di. Xususan, “a’yonlarining taxt talashishi” natijasida Chuvrindining Kesakpolvon tomonidan o‘ldirilishi uni qaytadan yovuzlik saltanati hukmdoriga aylantiradi.

Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat” romanida Yusufning tog‘asi Muhammadjon qarindoshlari orasida alohida mavqega ega, shuningdek, g‘ayritabiiy yashash tarzi bilan Yusufni ham hayratda qoldirgan: “*To‘g‘ri-da, Muhammadjon aka Yusuf uchun o‘zga sayyoradan tashrif buyurgan antiqa nusxadek gap: Kattakon hovlida bir o‘zi yashaydi, o‘zi uy supurib, o‘zi ovqat qiladi, o‘zi kir yuvadi. Bu hali asosiysi emas*” [12. B. 8].

Muhammadjon tog‘a tarix o‘qituvchisidan amaldorlikka ko‘tarilgan, lekin haq so‘zi uchun ayblanib, qamalib chiqqan. Shu boisdan qayta ish topa olmay, bog‘ yaratib, qushlarni parvarish qiladi. U Yusufning “urug‘ ichida boshqacha bo‘lganini” erta anglaydi, jiyani bilan tarix va o‘z hayot tajribalari haqida ham bemalol gaplasha oladi. Uning o‘limi oldidan Yusufga “yaqinda bu imperiya parcha-parcha bo‘lib ketishi” haqida aytgan gaplari “bashorat” o‘laroq yangraydi. Tog‘a Yusufni nafaqat ma’naviy, balki moddiy jihatdan ham ta’minlashga urinadi: Yusufga o‘zining viloyatdagi uyini sovg‘a qiladi. Tog‘asining mamlakatlar va siyosiy tuzumlar haqidagi suhbatlari natijasida Yusuf haqiqiy, chinakam tarixni yaratishni orzu qiladi. Davr uni turli taloto‘plarga tashlasa-da, oxir-oqibat tog‘asi yo‘naltirgan yo‘l – *yolg‘on yozmaslik, yolg‘on istagan kimsalarning xizmatini qilmaslik*ni tanlaydi.

Zamonaviy nasrda dono qariya arxetipining ayricha variantini ham uchratish mumkin. Ba’zi asarlarda dono qariya va uning soyasi o‘zaro kontrastlangan holda berilgan. Bunday tipdagi qahramonlar faqatgina o‘zini to‘g‘ri deb biluvchi, boshqalar ko‘rsatgan haqiqatni tan olmaydigan darajada xudbin bo‘ladi va unga ergashgan qahramonni ham shu yo‘lga chorlaydi.

Odatda, uch og‘ayni arxetipik sxemasida “Soya” arxetipi katta birodarlar bilan bog‘lanadi. Pirimqul Qodirovning “Qora ko‘zlar” romanida Ismat ota (Ortiqning qaynotasi), “Uch ildiz” romanida Hakimov (fakultet dekani), Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romanida Salohiddin zargar (Mavlono Muhiddinning otasi) obrazlari o‘zining tutgan yo‘lini to‘g‘ri deb bilgani bois unga qo‘l bergan personajlarga noto‘g‘ri maslahat beradi, noqulay vaziyatga solib qo‘yadi va qahramonning ma’naviy jihatdan tubanlashuviga sabab bo‘ladi.

Isajon Sultonning “Qismat” hikoyasida ushbu arxetipning faqat “Soya” ko‘rinishini uchratamiz. Hikoyada dono qariya arxetipi tush syujet motivi orqali namoyon bo‘ladi. Jabbor Eshonqulga ko‘ra, ertak va dostonlarda tushga kirgan obraz g‘ayritabiiy shaxs yoki homiy ruh bo‘ladi va u qahramonga xavf-xatardan qutulish yo‘lini, chorasini o‘rgatadi [5. B. 63]. O‘rtancha o‘g‘il onasi bilan jon va ruh, o‘limdan keyingi holatlar haqida suhbatlashganidan, otasining ruhi baliqqa o‘tib qolganligi haqida o‘ylay boshlaydi va xayollari tushi orqali aniqlashadi: “*Chunki ertasiga bir chol tushimga kirdi. Zovur yonida emish. Siz ulg‘aydingiz, lekin enangiz qiynaldi dermish. Otang baliq bo‘lib, oldingga keladi, akangga ayt, pishirib enangga bersin, tuzaladi dermish”* [13. B. 91].

Qariyaning faqat o‘rtancha o‘g‘il tushida namoyon bo‘lishining sababini analitik psixologiya va tush jarayoniga bog‘lab tadqiq etish mumkin. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, qahramonning biron bir masalani hal qilishdan oldin ikkilangan vaziyati dono qariya arxetip obrazining syujetda paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Psixolog Alfred Adlerga ko‘ra, tushning vazifasi – inson duch keladigan qiyinchiliklarni yengish va o‘sha mushkulotning yechimini ta’minlashdir. Ya’ni, agar odamlar muammoni ongli ravishda hal eta olmasa, tushda paydo bo‘ladigan hissiyotlar bilan o‘z ichki munosabatini tasdiqlab olishi mumkin [14. B. 63]. E’tibor berilsa, hikoyadagi o‘rtancha o‘g‘ilning kenja va katta o‘rtasida arosatda qolganligi seziladi. Kichik o‘g‘ilning baliq haqida ayni shu akasiga aytishi ham katta akasidan ko‘ra o‘rtancha akasini o‘ziga yaqin olganidandir. O‘rtancha aka bilan katta akani qiyoslab ko‘rsak, unda otasiga akasi singari nafrat emas, balki, mehr tuyganligini anglaymiz. Uning otasiga nisbatan hurmati baland: “*otam qanday odam edi-ya. Otamday vazmin, og‘ir…otamday kamgap… yurganida yer zirillardi, hovliga kirganida haybatidan hamma jimib ketardi”* [13. B. 91]. Lekin u katta o‘g‘il singari o‘tmish bilan bog‘lanib qolmagan, balki hozir bilan yashaydi. O‘g‘il otasining ruhiga qasddan hurmatsizlik qilmoqchi emas, shunday bo‘lsa-da, uning uchun ota ruhi, xotirasiga nisbatan ehtiromdan ko‘ra, yonidagi ko‘zi ojizlashayotgan onaning sog‘ligi ahamiyatli*: “Ota, jon ota…sen o‘lib ketding, ammo enam ham kasal-ku…u ham o‘lib ketsinmi…biz seni yemayapmiz-ku, sen boshqa baliqning ichiga kirib olaverasan, deb yig‘ladim*” [13. B. 91]. U onasi uchungina bu ishga qo‘l uradi, uning avvaliga o‘ylanishi, keyin bu ishlarga aralashmay “tomorqadan beri kelmasligi” ham uning faqat onasining tuzalishi uchun harakat qilayotgani, botinida biroz ikkilanish borligini bildiradi. O‘rtancha farzandlarga xos bo‘lgan *moslashuvchanlik* va *tinchlikparvarlik* xususiyatlari ushbu personaj harakatlarida aks etadi.

Demak, asarning badiiy konsepsiyasi – *otaga nisbatan qilingan gunohning bolalardan qaytishi* masalasi dono qariyaning o‘rtancha o‘g‘il tushiga kirib, uni baliqni pishirib berishga undashi tarzida aks etgan. Hikoyaning tub burilish nuqtasi mana shu epizodda

ko‘rinadi. O‘rtancha o‘g‘ilning tushidagi cholning “*siz ulg‘aydingiz, lekin enangiz qiynaldi”* [13. B. 91] deb aytgan so‘zlari uning botinida o‘ylayotgan fikrlarining tasdig‘i o‘laroq yangragan.

Ota ruhi o‘rnashgan baliqni tutish va onasiga pishirib berishga katta birodarlarning qo‘l urishi va kenja o‘g‘ilning bu jarayonda ishtirok etmasligi 2+1 (katta, o‘rtancha + kenja) invariant syujet sxemasini takrorlaydi. Aka-ukalar bu harakati bilan ertaklardagi singari “Tilaklari, istaklari mo‘l” kenja o‘g‘ilga nisbatan haqsizlik qilgan, u qo‘lga kiritgan mukofotni tortib olgan kabi taassurot qoldiradi.

XULOSA

Dono qariya arxetipi ongga bog‘liq bo‘lmagan, insonning ichki ovozi hisoblanadi va keksa mo‘ysafid timsolida namoyon bo‘ladi. Demak, ushbu arxetipga uch og‘ayni arxetipik sxemasidagi faol motiv sifatida qarash mumkin, u folklor va yozma adabiyotda asosiy xususiyatini yo‘qotmasdan, turli ko‘rinishlarda (ota, homiy personaj, ustoz, tabib, hakim va h.k) namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, qahramonning ruhiy evolyutsiyasi, uning ichki ziddiyatlari va ma’naviy kamolotini ochib berishda muhim funksiya bajaradi.

Adabiyotlar:

1. *Marie-Louise von Franz*. The interpretation of fairy tales. – New York: Spring publication, 1971. – 164 p.

2. *Frye Nortrop*. The anatomy of criticism. Four essays. – New Jersey: Princeton University press, 2000. – 383 p.

3. *Jung Carl Gustav*. The wise old man. [Online]. URL: https://junguipediaeng.miraheze.org/wiki/Wise_Old_Man. (Date of Access: 12.06.2026)

4. *Джозеф Кэмпбелл.* Тысячеликий герой. [Электронный ресурс]. URL: https://limbook.net/read/tysyachelikiy-geroy.html?section=4#4 (Дата обращения: 13.06.2026)

5. *Эшонқул Ж*. Миф ва бадиий тафаккур. – Тошкент: Фан, 2019. – 312 б.

6. *Alisher Navoiy*. Farhod va Shirin. Doston. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – 528 b.

7. *Қодиров П*. Қора кўзлар. Роман. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – 285 б.

8. *Элиаде М*. Тайные общества. Обряды инициации и посвящения. – Москва-Санкт-Петербург: Университетская книга, 1999. – 356 с.

9. *Yoqubov O*. Er boshiga ish tushsa... Roman. – Toshkent: Nurli dunyo, 2024. – 320 b.

10. *Yoqubov O.* Ulug‘bek xazinasi. Roman. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 378 b.

11. *Малик Т*. Шайтанат. Роман. Учинчи китоб: Семирган чумоли. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2018. – 416 б.

12. *Ҳамдам У*. Мувозанат. Роман. – Тошкент: Шарқ, 2007. – 272 б.

13. *Султон И*. Асарлар: Ҳикоялар. 1-жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – 392 б.

14. *Adler A*. What life should mean to you. [Online]. URL: https://archive.org/details/in.ernet.dli.2015.234444/mode/2up. (Date of Access: 25.11.2024)

THE WISE OLD MAN ARCHETYPE IN THE THREE-BROTHER ARCHETYPAL SCHEME

Fotima O. Mamtaliyeva[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2026. 5(97). 101-108.

[1]Academic Lyceum under the Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnologies, Andijan, 170100, str. Baynalminal, 95 (Uzbekistan). E-mail: and.agraral@inbox.uz

Key words: the archetypal figure of the three brothers, initiation, the wise old man, ego, shadow, the youngest.

This article is analyzed the “wise old man” archetype from Carl Jung’s analytical psychology through the lens of the “three brothers” archetype, comparing its manifestations in folklore and modern literature.

The wise old man archetype typically appears when the protagonist faces a difficult situation-specifically, at the outset of the hero’s journey. Often associated with the figure of the youngest son, this archetype guides him toward making the right decisions.

In modern prose, the wise old man archetype retains the following characteristic traits:

1. mysterious;
2. possesses a unique way of thinking;
3. leads an unconventional (or eccentric) life;
4. is often solitary;
5. frequently distrustful of the socio-political order.

By examining the archetype of the “wise old man” in contemporary Uzbek literature, one can identify a number of transformations it has undergone, as well as conduct an extensive analysis of its function within literary works.

Indeed, our research is not merely about locating and identifying archetypes in literature; rather, it aims to demonstrate how this archetype evolves in response to shifts in social life – thereby illustrating its inherent fluidity and its capacity to transcend specific geographical or cultural boundaries.

For instance, in Odil Yoqubov’s novel “Er boshiga ish tushsa” the character Qurbon Ota is portrayed in a manner reminiscent of the venerable elder who presides over ancient initiation rites. In the author’s novel “Ulug‘bek xazinasi”, the portrait of Usta Temur Samarqandiy is vividly depicted, highlighting his distinctive nature. Usta Temur’s role is to show Qalandar Qarnoqiy the right path and to extend a helping hand at critical moments. In the novel “Shaytanat”, the wise old man is portrayed as a saint-like figure possessing divine power – resembling the invariant archetype – and he saves Asadbek as the latter faces imminent death.

The wise old man archetype in the novel “Muvozanat” is distinctive. He is the uncle of Yusuf – a character representing the “youngest son” archetype – and is a former teacher who once served the political establishment but was subsequently accused of a political error and effectively ostracized from society. He urges Yusuf to write an authentic history of the people in the future and to avoid succumbing to falsehoods.

Conversely, in Isajon Sulton’s short story “Qismat” (“Fate”), the archetype of the wise old man performs a traditional function, yet his call serves a negative purpose. Thus, in this story, the author effectively utilizes the “shadow” aspect of the wise old man.

References:

1. Franz, Marie-Louise. (1971). *The interpretation of fairy tales*. New York : Spring publication.

2. Nortrop, F. (2000). *The anatomy of criticism Four essays*. New Jersey: Princeton University press.

3. Jung, C.G. *The wise old man* [Online]. URL: https://junguipediaeng.miraheze.org/wiki/Wise_Old_Man. (Date of access: 12.06.2026)

4. Kempbell, J. *Tysyachelikij geroj* [The hero with a thousand faces]. [Online]. URL: https://limbook.net/read/tysyachelikiy-geroy.html?section=4#4 (Date of access: 13.06.2026).

5. Eshonqul, J. (2019). *Mif va badiiy tafakkur* [Myth and Artistic Thought] Toshkent: Fan.

6. Alisher Navoi. (2020). *Farhod va Shirin* [Farhad and Shirin]. Tashkent: Publishing house named after Gafur Gulyam.

7. Qodirov, P. (1983). *Qora ko‘zlar* [Black eyes]. Tashkent: Publishing House of Literary and Art named after Gafur Gulyam.

8. Eliade, M. (1999). *Tajnye obshchestva. Obryady iniciacii i posvyashcheniya* [Secret Societies. Rites of Initiation and Consecration]. Moscow: Saint Petersburg: University Book.

9. Yoqubov, O. (2024). *Er boshiga ish tushsa...* [It’s not easy to become a man...]. Tashkent: Nurli dunyo.

10. Yoqubov, O. (2018). *Ulug‘bek xazinasi*. Roman. [Ulugh Beg‘s Treasury]. Novel. Tashkent: “National Encyclopedia of Uzbekistan” State Scientific Publishing House.

11. Malik, T. (2018). *Shaytanat. Roman*. Uchinchi kitob: Semirgan chumoli. [Book Three: The Fat Ant]. Tashkent: “National Encyclopedia of Uzbekistan: State Scientific Publishing House.

12. Hamdam, U. (2007). *Muvozanat. Roman*. [Equilibrium]. Tashkent: Sharq.

13. Sulton, I. (2017). *Asarlar. Hikoyalar.* [The works. Stories]. Vol. 1. Tashkent: Publishing house named after Gafur Gulam.

14. Alfred, A. (1931). *What life should mean to you*. [What life should mean to you]. [Online]. URL: https://archive.org/details/in.ernet.dli. 2015.234444/ mode/ 2up. (Date of access: 25.11.2024)

Muallif haqida ma’lumot:

MAMTALIYEVA Fotimaxon Odiljon qizi – Andijon qishloq xo‘jaligi agrotexnologiyalari instituti qoshidagi akademik litsey o‘qituvchisi. E-mail: fotimamamtaliyeva@gmail.com